



Characteristics of traditional performance of the classical musical piece "Savti Kalom"

Abdulkhay KARIMOV¹

Fergana State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025

Received in revised form

15 May 2025

Accepted 15 June 2025

Available online

25 June 2025

Keywords:

classical music,
traditional performance,
maqom,
artistic expression,
poetry.

ABSTRACT

This article explores the characteristics of the traditional performance of the classical musical composition Savti Kalom. It demonstrates that the performance of this piece represents not only a form of musical artistry but also a complex expression of spiritual-literary knowledge and emotional depth. The study emphasizes the importance of the performer's deep understanding of the interaction between words and music and the need to convey meaning to the listener through artistic interpretation. The article highlights that performing Savti Kalom requires a high level of musical skill, expressive delivery, and refined artistic perception.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss3-pp163-168>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

"Savti kalom" mumtoz musiqa asarining an'anaviy ijrochilikdagi xususiyatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Savti Kalom,
mumtoz musiqa,
an'anaviy ijro,
maqom,
tavsif,
she'r.

Ushbu maqolada "Savti kalom" nomli mumtoz musiqa asarining an'anaviy ijrochilikdagi xususiyatlari tahlil qilingan. Unda bu asarning ijrosi nafaqat musiqiy san'at namunasi, balki ma'naviy-adabiy bilimlar va nozik his-tuyg'ularning mushohadabop ifodasi sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda ijrochining so'z va musiqaning o'zaro ta'sirini chuqur anglab, ma'noni tinglovchiga badiiy obraz orqali yetkazishi, shuningdek, bu jarayon yuqori ijrochilik madaniyati va mahoratini talab qilishi ilmiy asosda yoritilgan. Maqola "Savti kalom"ning estetik va badiiy talqini doirasida an'anaviy musiqiy ifodaning zamonaviy anglanishini ham ko'rsatib beradi.

¹ Associate Professor, Faculty of Pedagogy, Psychology and Art History, Honored Artist of Uzbekistan, Fergana State University, Fergana, Uzbekistan. E-mail: a.karimov@gmail.com

Особенности традиционного исполнения классического музыкального произведения «Савти калом»

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

классическая музыка,
традиционное
исполнение,
маком,
художественная
интерпретация,
поэзия.

В данной статье рассматриваются особенности традиционного исполнения классического музыкального произведения «Савти калом». Показано, что его исполнение представляет собой не только проявление музыкального искусства, но и сложную форму духовно-литературных знаний и чувств. Автор подчеркивает, что исполнитель должен глубоко осознавать взаимосвязь слова и музыки, художественно передавая смысл произведения слушателю. Особое внимание уделяется необходимости высокой исполнительской культуры, профессионального мастерства и художественной интерпретации в процессе исполнения «Савти калом».

KIRISH

O'zbek mumtoz musiqasi milliy madaniyatimizning eng qadimiy va nozik san'at turlaridan biri bo'lib, uning ijrochilik an'analari asrlar davomida shakllangan va bugungi kunda boy ma'naviy meros sifatida katta ahamiyat kasb etadi [1], [2]. Bu meros ichida "Savti Kalom" yo'nalishi alohida o'rin tutadi. U o'zbek musiqa madaniyatida she'riy so'z va musiqaning uyg'unligi orqali shakllangan va mumtoz ijrochilikda o'ziga xos badiiy ifoda vositasi hisoblanadi [3].

"Savti Kalom" asarining o'ziga xosligi – uning ijrosida ma'naviy chuqurlik, estetik mazmun va nozik his-tuyg'ularni musiqiy obraz orqali ifodalash imkoniyati bilan belgilanadi [4]. She'r matni bilan musiqa o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sir ijrochidan nafaqat musiqa texnikasini, balki adabiy bilim va badiiy tafakkurni ham talab qiladi [5]. Shuning uchun bu yo'nalishdagi ijro soddalikdan yiroq, baland estetik saviya va talqinga asoslangan badiiy so'z san'ati bilan uyg'unlashgan holda amalga oshiriladi [6].

Ushbu maqolada "Savti Kalom" asarining qisqacha tarixi, ijrochilikdagi o'rni, musiqiy-adabiy kontekstdagi roli va milliy musiqa madaniyatidagi ahamiyati keng tahlil qilinadi. Shuningdek, ijrochilikda qo'yiladigan talablar, musiqiy ifoda vositalari va tinglovchiga yetkaziladigan mazmunning badiiy talqini yoritiladi [7], [8].

"Savti Kalom" va "Talqinchai Savti Kalom" nomli asarlar o'rtasidagi farqlar ham alohida e'tiborga loyiq. Har ikkisi mumtoz musiqa an'alariga oid bo'lsa-da, ularning maqsadi, ijro uslubi, semantik yuklamasi va musiqiy maqomi jihatidan sezilarli farqlari mavjud. "Savti Kalom" an'anaviyroq, musiqiy va adabiy uyg'unlikka asoslangan ifoda vositasi bo'lsa, "Talqinchai Savti Kalom" esa aynan talqin asosidagi ichki dramatism, individual ifoda va ruhiy chuqurlikka urg'u beruvchi yo'nalish sifatida shakllangan [9], [10].

Quyida ushbu ikki asarning o'zaro taqqoslovchi tahlili va ularning o'ziga xos jihatlari tafsilotlari bilan yoritiladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi quyidagi usullarga asoslangan:

- Tarixiy-tanqidiy tahlil – "Savti kalom" asarlarining paydo bo'lishi va rivojlanishini aniqlash maqsadida tarixiy manbalar o'rganildi.

- Ijrochilik tahlili – ustoz ijrochilarning audio-video manbalari orqali ijro uslublari va musiqiy talqin xususiyatlari o'rganildi.

- Adabiy tahlil – musiqiy ijroda qo'llanilgan she'riy matnlarning mazmuni va tarkibiy xususiyatlari tahlil qilindi.

- Kompartiv (qiyosiy) usul – turli ijrochilar va musiqa namunalari o'rtasidagi farq va o'xshashliklar aniqlandi.

Ushbu usullar yordamida “Savti kalom” mumtoz musiqa ijrosining o'ziga xos xususiyatlari va ijrochilik san'atidagi o'rni aniqlandi.

Talqinchai savti kalom – “Savti kalom”ni, ya'ni, ovozli she'riy nutqni muloyim va ehtiros bilan kuylash tarzi ma'nosini anglatadi. Ijro uslubi – ehtirosli, lirik, muloyim va past ovozda, hissiy kuchli, asosan “talqin” uslubida, maqsadi – she'rni qalbga ta'sir qiluvchi hissiyot bilan yetkazish, matn mazmuni lirik, muhabbat, hayot haqidagi o'ylar, ruhiy holatlarni aks ettiradi.

Savti kalom – kalomni odatda, falsafiy yoki tasavvufiy mazmundagi she'rni musiqali tarzda, muayyan maqom doirasidagi kuy ma'nosini anglatadi. Ijro uslubi – an'anaviy maqom doirasidagi ko'proq rasmiy uslub, ko'pincha ravon va ta'sirli, maqsadi – ma'naviy-falsafiy mazmunni musiqiy ijro orqali ifoda etish, matn mazmuni – tasavvufiy, irfoniy, axloqiy, hayot haqidagi tafakkur aks ettiradi.

Ikki asarning misolida: “Savti kalom” – mumtoz maqom tarkibida, ya'ni Shashmaqomdagi “Savt”:

- Bu qismda ovoz va musiqa birgalikda she'rni ravon, ta'sirli va ritmik tarzda yetkazadi.

- Kalom mazmuni – odatda tasavvufiy, axloqiy, irfoniy mavzularda bo'ladi.

- Ijroda ma'lum ritm, jarayon va shakl saqlanadi.

“Talqinchai savti kalom” – Shashmaqomning “Talqincha” qismlarida yoki lirik musiqa janrida:

- Bu yerda she'rni oqish kabi, juda shaxsiy, hissiyotli va erkin musiqa uslubida ijro etiladi.

- Ton past, muloim, ovoz faol, lekin u musiqaning hissiy ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan.

- Bu shakl ijrochi va tinglovchi o'rtasida intim muloqot yaratishga xizmat qiladi.

“Savti kalom” atamasi – nafaqat til, balki mumtoz musiqa, adabiyot va madaniyat sohalarida ham muhim o'rin tutadi. Quyida bu so'zning ma'nosi va mazmunli tavsifini berib o'taman.

“Savti kalom” so'zining ma'nosi

- **“Savt”** (صوت) – arab tilida ovoz, sado, tovush degan ma'noni anglatadi.

- **“Kalom”** (كلام) – so'z, nutq, gap, she'r degan ma'noda ishlatiladi.

*Xirom aylar guliston ichra u mastona-mastona,
Tabassumdin namoyon aylabon durdona-durdona.
Tamosho chog'ida mone'durur ko'zdin yurak qoni,
Bu hasratdin to'kar mardumlarim marjona-marjona.
Mayi gulrang arodur jilvagar ruxsori, ey soqiy,
Tavaqquf aylama sung'il yana paymona-paymona.
O'shal sho'xi sitamgarni bo'lurmi oshno, deb hech,
Raqiba iltifot aylar, manga begona-begona.*

*Qayu bir tun aro ruxsori jonona nazar solgach,
Bu ko'z oynasi husninggadur hayrona-hayrona.
Uvaysiydur rafiqi dardu hijronadurur munis,
G'ami dildor birlan doimo hamxona-hamxona.*

Ulug' shoira Uvaysiy qalamiga mansub ushbu g'azal ham tariqat yo'liga kirgan solik, ya'ni Allohga oshiq bo'lgan kishining dastlabki maqomlardan biridagi holati ifodalangan. Chunki, Uvaysiy nomining o'zi ham ruhi g'oyibdan tarbiyat qilingan, ilohiy ishq tarbiyatiga kirgan ma'nosini bildiradi, jumladan Sufiy alloma Uvays Qaraniy kabi. Uning birinchi baytidan boshlab, mavzusi Ilohiyishq ekanligi anglanadi.

*Xirom aylar / guliston ich / ra u masto / na-mastona,/ /
Tabassumdin namoyon aylabon durdona-durdona.*

V - - - / V - - - / V - - - V - - -

Mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

Matndagi guliston, tabassum, soqiy, paymona, mayi gulrang, dard so'zlari majoziy ma'noda bo'lib, guliston yorug' olam ma'nosida kelgan. Alloh o'zi yaratgan bu olam asosida, mohiyatida yashirin degan tasavvufiy ma'nodan kelib chiqilsa, shoira bu dunyoni Alloh go'zal qilib yaratgan va bu go'zal gullar, bog'lar, umuman olganda, butun borliq ortida Yaratganing o'zi ana shu tajallisiga o'z san'atidan mast bo'lgan boqib turibdi, degan ma'no anglanadi. Bu yerdagi tabassum aslida Allohning tajallisiga ishora, ana shu tajalliy yoki o'z-o'ziga muhabbat durdona aylangan, deya Alloh ijodini vasf etilgan. Shu yerda an'anaga ko'ra, dastlab Alloh ijodi vasf etilgan. Boshqa tomondan olganda, mashhur so'fiy shoirimiz Xuvaydning "Muhabbatdan Muhammad paydo, Muhabbatsiz kishidan qoch, Xuvaydo" degan mashhur satriga yaqin mazmun o'z ifodasini topgan. Demak, bu yerda Ilohiy ishq, ya'ni Yaratganning o'z bandalariga va bandaning o'z Yaratuvchisiga bo'lgan muhabbati haqida so'z boradi. Muhabbat aslida dard, iztirob, mashaqqat ma'nosida kelgan. Buni ikkinchi baytdan anglash mumkin:

*Tomosho chog'ida mone'durur ko'zdin yurak qoni,
Bu hasratdin to'kar mardumlarim marjona-marjona.*

Tomoshodan murod bu qiyomat kuni hamma to'planadigan joyni anglatish bo'lib, o'sha kuni Yaratgan vasliga yetishmoq uchun ko'zdan yurak qoni oqib, seni ko'rishga to'sqinlik qiladi. Bu hasratdan sening qorachiklarim marjondek ko'zyosh to'kadilar deyilgan. Darhaqiqat, bu yerda chiroyli tashbih ham qo'llangan. Ya'ni oshiqning oxirat kunida Yaratganga bo'lgan muhabbati marjonga aylanib oqadi, deya lutf qilinmoqda. Yaratgan bo'lgan muhabbat azobidan dur chiqishi mohiyatan inson ruhining kasratdan chiqib, tavhid darajasiga yaqinlashishini anglatadi.

*Mayi gulrang arodur jilvagar ruxsori, ey soqiy,
Tavaqquf aylama sung'il yana paymona-paymona.*

Aynan mazkur baytda birinchi misradagi biz ko'rib turgan olam mohiyatida, asosida Yaratgan mohiyati yashirin, degan fikr ochiqroq aytilib, g'azalning ilohiy ishq mavzusida ekanli ta'kidlangan. Buni tushunish uchun "mayi gulrang", "jilvagar ruxsori", "ey soqiy" so'z birikmalarini va "tavaqquf", "paymona" so'zlarini izohlash kerak bo'ladi.

“Mayi gulrang” guldek rang-barang tovlanib turuvchi may bo’lib. Tasavvufda “mayi ahmar”, “mayi gulgun” kabi iboralar orqali ham ifodalanadi. Umuman olganda, butun g’azal ilohiy ishqqa talpinayotgan oshiq kechinmasi tahliliga bag’ishlangan.

“Savti kalom” yo’nalishi va umumiy o’zbek mumtoz musiqasi ijrochiligi mavzusidagi tadqiqotlar ko’plab ilmiy asarlar va adabiy manbalarga tayangan holda amalga oshirilgan. Asosiy adabiyotlar qatorida O’zbekiston Milliy akademik katta teatrining musiqa ilmiy tadqiqotlari, Xayriddin Qayumning musiqa tarixi bo’yicha asarlari hamda milliy mumtoz musiqa maktabi ustozlarining yozma va audiomanbalari bor. Adabiyotlar tahlili jarayonida “Savti kalom”ning tarixiy rivojlanishi, ijrochilik uslublari va mazmunan o’zbek milliy musiqiy an’analardan kelib chiqishi asosiy o’rin tutadi. Shuningdek, adabiy manbalardagi she’riy matnlarning musiqa bilan uyg’unligi va ijrochining badiiy talqini tahlil qilindi.

O’zbek mumtoz musiqasidagi “Savti kalom” yo’nalishining ijrochilik san’atidagi o’rni va uning badiiy, ma’naviy hamda adabiy xususiyatlari tahlil qilindi. Adabiyotlar tahlili va amaliyotdagi ijrochilik namunasi asosida, “Savti kalom” musiqiy ijroda she’r va musiqaning mukammal uyg’unligini tashkil etishi aniqlandi. Shuningdek, “Savti kalom” ijrosida ijrochining nafaqat texnik mahorat, balki she’riy matnning mazmunini chuqur anglab, uni badiiy va ma’naviy jihatdan talqin etishi muhim ekani ma’lum bo’ldi. Bu yo’nalishda ijrochilik nafaqat musiqaning o’ziga xosliklarini namoyon etish, balki milliy adabiy meros va ma’naviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Shu bilan birga “Savti kalom” ijrosi milliy musiqa madaniyatida ustoz-shogird an’analarni saqlash va mustahkamlashda muhim o’rin o’ynashi ta’kidlandi. Ushbu yo’nalishni o’rganish va rivojlantirish milliy musiqiy san’atni boyitish va uni jahon miqyosida tanitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni aytish joizki, “Savti kalom” yo’nalishi o’zbek mumtoz musiqa ijrosining eng nozik va ma’naviy jihatdan boy qismlaridan biri bo’lib, uning ijrochilik san’atidagi o’rni yuqori baholanadi, milliy musiqa madaniyatini chuqurroq o’rganishga, shuningdek, ijrochilar malakasini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

O’zbek mumtoz musiqa san’ati – xalqimizning eng qadimiy, ma’naviy boy va estetik jihatdan yetuk meroslaridan biri sifatida alohida e’tirofga loyiq. Shu musiqiy an’alar orasida “Savti kalom” yo’nalishi o’zining nozik badiiy ifodasi, she’r va musiqaning uyg’unligi, hamda ruhiy-falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi. Tadqiqot davomida ushbu yo’nalishning tarixiy ildizlari, ijrochilikdagi o’rni, va milliy musiqa madaniyatidagi ahamiyati chuqur o’rganildi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, “Savti kalom”ning ijrosi oddiy musiqiy ifodadan ko’ra, ma’naviy-falsafiy mazmunga ega ruhiy tajriba sifatida qaraladi. Ijrochi so’z va musiqaning o’zaro ta’sirini chuqur anglab, tinglovchiga uning estetik va ma’naviy mazmunini badiiy talqin orqali yetkazishi zarur. Bu esa ijrochidan yuqori texnik mahorat, badiiy sezgi va adabiy saviyani talab qiladi.

Tadqiqot davomida “Savti kalom” va “Talqinchai savti kalom” o’rtasidagi farqlar ham tahlil qilindi. Ularning ijro uslubi, mazmuniy yuklamasi va musiqiy maqomi jihatidan farqlanishi ularni alohida ijro maktablariga mansubligini ko’rsatdi. “Savti kalom” an’anaviy maqom doirasida, odatda falsafiy-tasavvufiy mazmunga ega she’rlar orqali ijro etilsa, “Talqinchai savti kalom” lirik, muloyim, erkin va ehtirosli ifoda orqali tinglovchi bilan bevosita hissiy aloqani shakllantiradi.

Adabiyotlar tahlili, ustoz-shogird ijrochilik namunalarining solishtirilishi va poetik matnlarning musiqiy uyg'unlikdagi roli tahlili asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

- “Savti kalom” ijrosi o'zbek musiqa san'atining yuksak badiiy namunasidir va u orqali milliy madaniyatning ma'naviy chuqurligi ifodalanadi;
- Ijrochilik jarayonida she'r mazmuni bilan musiqiy ifoda o'rtasidagi uyg'unlik muhim omil hisoblanadi;
- Bu yo'nalish milliy adabiyot va musiqa uyg'unligini saqlab qolish, boyitish va yosh avlodga yetkazishda samarali vosita hisoblanadi;
- “Savti kalom” ustoz-shogird an'alarini tiklash va rivojlantirishda, shuningdek, milliy musiqani jahon sahnasiga olib chiqishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, “Savti kalom” nafaqat musiqa, balki ma'naviy tarbiya, adabiy tafakkur va milliy o'zlikni ifodalovchi san'at shaklidir. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar davom ettirilishi, uning nazariy va amaliy jihatlarini chuqurroq o'rganish milliy musiqa merosini asrab-avaylash va global miqyosda targ'ib qilishda muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rahmonov, U. (2024). *The role of culture in preserving and enriching our spirituality*. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(2), February. SJIF 2023: 6.980.
2. Otajonov, S. (2011). *Maqom san'ati nazariyasi*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.
3. Rahmonov, U.K. (2024). *Musiqa ta'limi orqali yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashda integratsion asosida madaniyatni yuksaltirish*. Farg'ona, pp. 575–578.
4. Zikirov, M. C., Qosimova, S. F., & Qosimov, L. M. (2021). Direction of modern design activities. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(2), 11-18.
5. Rahmonov, U.K. (2024, October 5). *Musiqa fan o'qituvchilarini tayyorlashda ularning kasbiy kompetentligini takomillashtirishda innovatsion va integratsion yondoshuvning ahamiyati*. Shahrisabz.
6. Rahmonov, U.K. (2024, October 19). *Musiqa ta'limini o'qitishda pedagogik-psixologik xususiyatlar*. Qo'qon, pp. 26–33.
7. Ganieva, H. (2019). *She'riyat va musiqa uyg'unligida estetik talqinlar*. San'atshunoslik ilmiy jurnali, 3(1), 33–40.
8. Qayumov, H. (2000). *O'zbek musiqa merosi va ma'naviyat*. Toshkent: Ma'naviyat.
9. Zokirova, M. (2017). *Sharq musiqasi va poetik matn uyg'unligi*. O'zbekiston san'ati jurnali, 4(2), 45–51.
10. Levin, T. C. (2006). *The Hundred Thousand Fools of God: Musical Travels in Central Asia (and Queens, New York)*. Indiana University Press.